

Mirali Muhammadjonovoch Hamroyev
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

OLIJ TA'LIMDA NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASINI BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy mutaxassisga qo'yiladigan tashqi talablar, ya'ni ta'lim xizmatlari bozori va bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning omillari bilan bog'liq talablardan kelib chiqqan holda boshqaruv tizimi xususida fikr yuritiladi. Albatta, yuqorida e'tirof etilgan muammo hozirda ta'limdagi o'qitishning ko'pgina usullarini takomillashtirish kabi bir xil darajada pedagogik ta'lim metodlari bilan ham o'zaro uzluksiz bog'liqdir.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, kadr, pedagogika, menejment, korporativ, boshqaruv, professional.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕГРАЦИЕЙ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В статье рассматриваются внешние требования к современному специалисту, т. рынок образовательных услуг и рыночная экономика как система управления, вытекающая из требований, связанных с факторами производства. Разумеется, вышеприведенная проблема в настоящее время неразрывно связана с методами педагогического воспитания в такой же степени, как и с совершенствованием многих методов обучения в образовании.

Ключевые слова: высшее образование, кадры, педагогика, менеджмент, корпоративный, менеджмент, профессиональный.

IMPROVING MANAGEMENT MECHANISMS FOR THE INTEGRATION OF THEORY AND PRACTICE IN HIGHER EDUCATION AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation. The article examines the external requirements for a modern specialist, i.e. the educational services market and the market economy as a management system resulting from the requirements related to the factors of production. Of course, the above problem is currently inextricably linked with the methods of pedagogical education to the same extent as with the improvement of many teaching methods in education.

Keywords: higher education, personnel, pedagogy, management, corporate, management, professional.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash jarayonini boshidan kechirmoqda. Bunday o'zgarishlarga bevosita mas'ul bo'lgan pedagogika fani pedagogik jarayonlarning boshqaruv tuzilmalari madaniyatining mazmunini o'ziga xosligini belgilab beruvchi yoki uni tashkiliy tuzilmalarini rivojlantiruvchi manbalarning cheklanganligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Insonparvar, professional yondashuvga asoslanuvchi ishonchli korporativ etika tizimi ish faoliyati davomida muayyan qarorlarni qabul qilishida, boshqaruvni tashkillashtirishida, xodimlarning axloqiy madaniyatini tashkil etishida – bu tizim o'zaro uyg'unlikdagi tashkiliy munosabatlarni kasb etadi. Nazariya va amaliyot integratsiyasining asosiy vazifalaridan biri – tashkilotni shunday ishlash tizimi darajasiga yetkazadiki, unda boshqaruv ta'siri bo'lmay qolganda ham, u o'zini o'zi samarali boshqara oladi va o'zining mavjudligini saqlab qoladi [1].

Oliy ta'limda nazariya va amaliyot integratsiyasi haqidagi ilmiy g'oya AQShda XX asrning 1970-80 – yillarida paydo bo'lgan o'ziga xos o'zgarishlar asnosida ishlab chiqilgan. Bu, yirik va o'rta tadbirkorlikda mehnat samaradorligini yaxshilash uchun raqobatbardosh bozor talablariga muvofiq ravishda tashkil etilgan boshqaruvning yangi usullarini keng miqyosda izlash va uni joriy etish zaruratining paydo bo'lishi kabi ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan. O'tgan asrning 70-yillari oxirlarida strategik boshqaruv, boshqaruv nazariyasi, hamda individual axloq sohasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar tanazzulga uchradi. Nazariyachilar menejment sohasini tanazzuldan chiqish yo'lini korporativ (jamoaviy) madaniyatning samarali omillarini ishlab chiqish va uni rivojlantirish zaruratida ko'rishdi [2].

Oliy ta'lim muassasasining hayotiy faoliyatini saqlab qolish uchun qo'yiladigan talablarning qondirilishiga zamin yaratish dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda, chunki u endilikda mustaqil faoliyat yuritishi uchun kam cheklovlarga ega bo'lgan ta'lim muassasasi maqomiga ega bo'lib, muassasaning raqobatbardoshligi uchun kurashuvchi, resurslar aylanishining o'ziga xos munosabatlarida ishtirok etuvchi, faoliyat turlarini kengaytirishga imkon mavjud, o'zini-o'zi daromad bilan ta'minlay oladigan va ta'lim xizmatlari bozorida ishtirok eta oladigan, mutaxassislarini tayyorlash sifatini ta'minlash imkoniyatlariga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalari qatoridan o'rin egallashi zarur. Nazariya va amaliyot integratsiyasi har qanday korxona muassasaga tegishli jarayon bo'lib, u hoh sanoat, hoh ijtimoiy, tijorat yoki notijorat tashkilot bo'lsin, uning bitiruvchilari uchun kasbiy-madaniy, korporativ, ko'nikmalarning egallanganligi va ularni rivojlantirish har qanday yangi jamoa bilan aloqalarni o'rnatishda hamda ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida o'z-o'zini moliyalashtirishga bosqichma-bosqich o'tish vazifalari yoritib berilgan [3]. Ushbu vazifalarning bajarilishi oliy ta'lim muassasalariga ta'lim xizmatlari bozorida mustaqil raqobatdosh xo'jalik yurituvchi sub'ekt sifatida ishtirok etish va o'z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini beradi.

Turli tashkilotlarda, shu jumladan, turli oliy ta'lim muassasasining nazariya va amaliyot integratsiyasii mos ravishda bir-biridan keskin farq qilinadi. Ya'ni ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu jarayon ularning maqsad va vazifalari, motivatsiyasi nazariya va amaliyot integratsiyasi tushunchasi paydo bo'lgan tijorat tashkilotlarida o'ziga xosligi bilan ifodalanadi.

Rus tili izohli lug'atida "integratsiya" - lotincha "integration" so'zidan olingan bo'lib, "integr" to'liq, yaxlit, bir butun degan ma'nolarni anglatadi. Integratsiya-o'zaro bog'langan holda rivojlantirish, bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq ekanligi ta'kidlanadi. Integratsiya turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish" [4] demakdir.

Ta'lim xizmatlari bozorida o'z pozitsiyasining barqarorligini ta'minlash uchun u tashqi muhitda namoyon bo'ladi va ichki muhitda insonparvarlik qadriyatlarini saqlash va to'plash uchun xizmat qiladi [5].

Nazariya va amaliyot integratsiyasining bir-biri bilan bog'liq ikki institutsional darajasi mavjudligini hamda hozirda boshqaruv amaliyotida keng qo'llanilayotganli ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Bunda tashqi daraja asosan muassasa va ishchilarning tashqi ko'rinishi va madaniyatini baholab, o'z ichiga tashkilot binolarining hamda xodimlarning tashqi ko'rinishi, kiyinish madaniyati, dress (kiyim) kodi; logotiplarning mavjudligi; tashkilot qadriyatlarini, axloqiy xulq-atvor mezonlarini tasvirlaydigan hujjatlarning mavjudligi kabi nazariya va amaliyot integratsiyasining ichki falsafiy qadriyatlaridan kelib chiqqan muhim jihatlarni qamrab oladi. Ma'lum bir tashkilot va muassasadagi ishchi xodimlarning o'zaro hamda mijozlari bilan o'rnatgan munosabati va xatti-harakatlarini belgilaydigan, o'rni kelganda tartibga solib, muvofiqlashtiradigan qat'iy qadriyatlar va me'yorlarning mavjud bo'lishi boshqaruvdagi nazariya va amaliyot integratsiyasining ichki darajasi tomonidan ta'minlanadi.

Oliy ta'lim muassasasi boshqaruvi duch keladigan faoliyat va muammolarning xususiyati, faqatgina shaxsiy maqsadlarga ega bo'lgan aksariyat o'qituvchi va talabalarni talab darajasida qiziqitirmaydi, ya'ni bu kabi toifalarga faqatgina shaxsiy motivatsiya ustunlik qiladi.

Agar oliy o'quv muassasasining nazariya va amaliyot integratsiyasii faoliyatini o'ziga xos xususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqsak, munosabatlar qisman-avtoritar vertikal hisoblanadi va ular boshqaruvning tashkiliy yo'nalishidagi alohida munosabatlarga asoslangan bo'lib, o'z navbatida, rektor va prorektorlar o'z shaxslariga nisbatan tashkilotning boshqaruv mas'uliyatlarining katta qismini o'zlariga yuklab oladilar. Avtoritar boshqariladigan muhitning kuchi pastki ierarxiya qadamlari bo'ylab oshib boradi va o'qituvchi- xodimlarning mustaqilligi kamayib boradi [6].

Nazariya va amaliyot integratsiyasini boshqarishda, o'zining ilmiy salohiyati bilan ajralib turadigan ijtimoiy texnologiyalarga alohida o'rin beriladi [7]. Ta'lim jarayonida katta ilmiy salohiyatga ega professor-o'qituvchilar faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular erishgan fan yutuqlarini amaliyotga keng doirada joriy etish, natijalardan esa, ustoz-shogird ana'nalariga asoslangan holatda talaba va magistrantlarni tayyorlashda foydalanish nazarda tutiladi. Shu bilan birgalikda, bugungi kunda oliy o'quv yurtlariga raqobatbardosh biznes subyektlari sifatida qaralayotganligini hisobga olgan holda, ularda olib borilayotgan tadqiqotlarning bir qismini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etish modellaridan foydalanish yo'llarini izlab topish lozimligi muhim ekanligini anglash mumkin. Ijtimoiy-psixologik ziddiyatlardan tarkib topgan hodisalarni o'z vaqtida to'g'ri yechimini topuvchi zaruriy hayot faoliyatidan iborat bo'lgan har tomonlama qulay muhitni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonining hozirgi bosqichida boshqaruv samaradorligining mezonlari qatorida inson omili muhim o'rin egallaydi, boshqaruvning ijtimoiylashtirishini rivojlantirish mexanizmini ifodalovchi majmuada fikrlash, faoliyat, ta'lim berish, o'zini o'zi boshqarish kabi jamoaviy rivojlanishni tashkillashtiruvchi, ijodkorlikning namoyon bo'lishi uchun yaratilgan tegishli muhit va sharoitlarni shakllanganligi, boshqaruv maqsadlariga erishishning postulatlariga asoslanadi.

Davlat siyosati yuqori malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish tizimida bir qator tashkiliy vazifalarni belgilaydi. Quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ilm-fanga shu bilan bir qatorda xo'jalikka oid amaliyot muammolarining eng optimal yechimlarini topish va integratsiyalash, mehnatni ijodiy (innovatsion) mazmun bilan boyitib, moddiy va ma'naviy omillar bilan rag'batlantirishni ta'minlash;
- o'z-o'zini tashkillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ajratib ko'rsatish.

Ko'rib turganimizdek, davlat siyosati va boshqaruvning ijtimoiylashuvi vazifalari bir-birini takrorlab turibdi hamda ular zamon talablariga mos keladi.

Ijtimoiy boshqaruv tizimida ijobiy natija – qadriyatlar zahirasi haqiqatdan ham amalda qo'llanilganligini, ijtimoiy vaziyatlarning yechimida texnik-texnologik vazifalarni qabul qilish va amalga oshirishni muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilganligini ko'rsatib turuvchi dalil bo'lib xizmat qiladi. Innovatsion fikrlash turi bunday tizimning zarur elementlaridan biri bo'lib o'rta tushadi va kundan kunga murakkablashib borayotgan va bir-biridan gumanitar, strategik, konstruktiv va texnologik jihatdan farq qiladigan vazifalarni hal qilishda konseptual, moslashuvchan, nostandart usullarni qo'llash lozimligi bilan ajralib turadi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirish bosqichlarini shakllantirish va ma'lum bir tizimga solish uchun quyidagi harakatlarni bajarish talab etiladi:

- uning tashkil etishda qatnashadigan tuzilmalar tarkibiy qismlariga o'zgartirishlar kiritish;
- amaliyotda qo'llanilayotgan boshqaruv mexanizmlarini nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida qayta ko'rib chiqib, tahlil qilish.

Shuningdek, muallif sotsial ixtisoslashuv prinsiplarini qayta ko'rib chiqqan holda, zamonaviy imidj psixotipini tuzish mezonlarini keltirib chiqarish masalasini ham ilshari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Козлов М.Ю. Социальные технологии управления корпоративной культурой высшего учебного заведения: Автореф. дис. ...канд. соц. Наук. – Белгород, 2009. – 20с.

- 2.Ахмедова М.А. Педагогические условия формирования корпоративной культуры вуза: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Ахмедова М.А. - Ульяновск, 2007.
- 3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони.
- 4.Тощенко Ж.Т. Социология управления. Учебник. - М., 2011-300с.
- 5.Петрова Г. Современный университет как корпорация: новая роль традиционной корпоративности/ Университетское управление: практика и анализ.- Том 22 № 2. 2018 .- с.25-38.
- 6.Гвозданная Н. В. Корпоративный медиакурс как инструмент управления имиджем компании // Российская школа связей с общественностью. 2015. Т. 7. С. 90-96.
- 7.Козлов М.Ю. Социальные технологии управления корпоративной культурой высшего учебного заведения: Автореф. дис. ...канд. соц. Наук. – Белгород, 2009. – 20с.
- 8.Корзникова, Г. Г. Менежмент в образовании: Учеб. пособие для студ. вузов, обучающихся по направлению подготовки "Социально-экономическое образование" / Г. Г. Корзникова. - М.: Academia, 2008. - 287 с.; Круглов М.И. Стратегическое управление компанией: Учебник для вузов. – М.: Русская Деловая Литература, 2006.

